

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



«TASDIQLAYMAN»

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha/prorektor**

K.Seitnazarov

« » 2025 y.

**13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha
imtihon
D A S T U R I**

NUKUS-2025

Dastur Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘quv-metodik Kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan (“_____” _____ 2025-yil, _____ - sonli boyonnoma).

Tuzuvchilar:

“Umumiy pedagogika” kafedrası p.f.d., prof.

A. Nauruzbaeva.

“Umumiy pedagogika” kafedrası. p.f.f.d, doc

D.Gaipov

Taqriz beruvchilar :

“Umumiy pedagogika”

p.f.d., prof.:

T. Utebaev

“Umumiy pedagogika”

p.f.d., prof.:

M.Pazilova

Dastur “Umumiy pedagogika” kafedrası Kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan (“_____” _____ 2025-yil, _____ - sonli boyonnoma).

“Umumiy pedagogika” kafedrası

mudiri, p.f.d., prof: .

A. Nauruzbaeva

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 22-maydagi 304-son Qarori qabul qilingach, oliy ta'limdan keyingi ta'lim ya'ni doktorantura orqali yuqori malakali ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash zaruriyati ham vujudga keldi. Buning uchun, birinchi navbatda, doktoranturaga talabgorlarning nazariy tayyorgarligini aniqlash talab qilinadi. Shu maqsadda qabul imtihonlari dasturi ishlab chiqildi. Dasturda mamlakatimizda yuqori malakali ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash zaruriyati, mazkur zaruriyatni qondirishga xizmat qiladigan me'yoriy asoslar, pedagogika fanidagi eng so'nggi yangiliklar, ajdodlarimiz pedagogik merosi, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish usullari bo'yicha tayanch doktoranturaga talabgorlar bilimlarini aniqlash maqsadida savollar to'plami taqdim etilgan.

Quyidagi yo'nalishlarda tayanch doktoranturaga talabgorlarning nazariy bilimlari, amaliy tayyorgarligini tekshirish nazarda tutilgan:

1. Ta'limning huquiy-me'yoriy asoslari.
2. Pedagogika fanining nazariy metodologik asoslari va uzluksiz ta'lim tizimi.
3. Tarbiya nazariyasi.
4. O'qitish nazariyasi.
5. Uzluksiz ta'lim tizimini boshqarish.
6. Pedagogik ta'limotlar tarixi va xalq pedagogikasi.
7. Oliy pedagogik ta'lim.
8. Ta'lim-tarbiya sohasidagi xorijiy tajribalar.

Bugungi kunga kelib, pedagogika sohasida pedagog va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashning innovatsion tizimini shakllantirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi ta'lim-tarbiyani rivojlantirish sohasida ko'plab Farmon va Qarorlarni qabul qildi. Ushbu Farmon va Qarorlarni hayotga joriy etish, ularning ilmiy-pedagogik ta'minotini yaratish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bo'lajak mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlarda ilmiy dunyoqarash va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy kasbiy nuqtai nazarga ega mutaxassislarni shakllantirish, ularning bilim darajasini sinab ko'rish nihoyatda zarur. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy hamda kasbiy faolligini oshirishda qabul qilingan sohaga oid

Qarorlar va Farmonlar muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ilm-fan va ta’limning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab berilgan.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (01.05.2023), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PF-134-sonli Farmoni, 2020-yil 19-maydagi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 29-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga mos tarzda rivojlantirilishi kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, yuqori malakali ilmiy hamda ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash talab qilinmoqda.

Shuning uchun ham ushbu fanning asosiy maqsadi – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat. Ularning ushbu fan shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari, metodologik masalalarini, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolariga oid materiallarni o‘zlashtirganlik darajalari aniqlanadi.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda pedagogika fanini rivojlantirish, ilmiy-pedagog kadrlarda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan. "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega har bir talabgor ilmiy-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishi lozim.

Ushbu dastur "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha talabgorning umumpedagogik bilim darajasini aniqlaydi. Mazkur dastur talabgorlarga pedagogika fanining rivojlanish jarayoni, tendensiyalarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq holda aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunda talabgorning pedagogika fanining o'ziga xos jihatlari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi prinsiplarni o'zlashtirganlik darajasiga e'tibor qaratiladi. Ta'lim-tarbiya amaliyoti, unda erishilgan yutuqlar, istiqbolda amalga oshiriladigan ishlarining talabgor tomonidan qay darajada idrok etilganligini aniqlash nazarda tutiladi. Dasturda pedagogika fanining vujudga kelishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviylikda talqin qilingan. Pedagogika sohasidagi ilg'or qarashlar, uning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish talabgorlardan qat'iy talab qilinadi.

"Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" fanining maqsad va vazifalari:

- talabgorlarning pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fan asoslaridan xabardorlik darajalarini aniqlash;
- maktabgacha va maktab ta'limini isloh qilish jarayonida uning samaradorligini oshirish uchun talabgohlarda zarur ko'nikmalarni hosil qilish;
- yangicha pedagogik tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogika sohasi mutaxassislarining innovatsion fikrlash layoqatini rivojlantirish;
- Pedagogika fanining qonuniyatlari, prinsiplari va rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish;
- "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif"larda keltirilgan shaxs tarbiyasi haqidagi qarashlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash;
- Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy va boshqa pedagoglarning asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar;
- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bilish va ulardan amaliyotda foydalana olishdan iboratdir.

Pedagogik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar

Pedagogika fanini o‘rganish jarayonida talabgorlardan quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur:

- pedagogika sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- pedagogik faoliyatni rivojlantirish istiqbolini ko‘zlagan holda maqsad, vazifalarni belgilay olish;
- o‘quvchi va talabalarga ta’lim-tarbiya berish hamda ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘llarini bilish;
- ta’lim-tarbiyaning samarali vositalari va metodlarini qo‘llay olish;
- ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shuningdek, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish;
- ta’lim sohasidagi islohotlar sharoitida pedagoglarning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bilish;
- o‘quvchilar va talabalar faoliyatini rag‘batlantirish usullarini bilish;
- pedagogik vaziyatlar, ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil eta olish, o‘quvchilar jamoasini o‘rganish metodlarini bilish;
- o‘quvchilardagi sustkashlik, tortinchoqlik sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘larini bilish;
- pedagoglarning o‘z kasbiy malakalarini rivojlantirish, pedagogik amaliyotdagi yutuqlar, ilg‘or tajribalardan foydalanish, pedagogik faoliyatga ijobiy munosabatni namoyon etish;
- sinf rahbari vazifalarining samaradorligini ta’minlovchi omillarni bilish.

Talabgorlar Pedagogika fanini o‘rganish davomida zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellash, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olish yo‘llarini bilishlari zarur.

Talabgorlar tomonidan “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi yo‘nalishida o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosatini ifodalovchi me’yoriy hujjatlar, ularning mazmun-mohiyati haqida.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosatining o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida pedagoglar tayyorlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘qituvchilik kasbi. O‘zbekistonda o‘qituvchilik kasbining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy,

Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda o'qituvchilik kasbining tutgan o'rni haqida.

Pedagogning o'ziga xos fazilatlar, ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi, tolerantligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nafari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchining jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalari. O'qituvchining shaxs tarbiyasi sohasidagi iste'dodi va kasbiy kompetensiyalari. O'qituvchining kasbiy axloq-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

O'qituvchining kasbiy mahoratni egallash yo'llari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Abdulla Avloniy, Shakuriy va Behbudiy kabi pedagoglar va ma'rifatparvarlarning bola tarbiyasi haqidagi fikrlari.

2. Pedagogika fan sifatida. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogikaning tadqiqot metodlari.

Pedagogika mustaqil fan sifatida. Pedagogikaning ta'lim-tarbiya va pedagogik tadqiqotlar tizimida tutgan o'rni.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi, bo'limlari. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogik jarayonlar va ularning yaxlitligi. Pedagogik jarayonlarni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat, nodavlat, ixtisoslashgan ta'lim muassasalari va Prezident maktablarining o'zaro farqlari va o'xshash jihatlari.

Pedagogika sohasidagi amaliy tadqiqot metodlari. Pedagogika sohasidagi tajriba-sinov ishlari va ularni amalga oshirish metodikasi.

3. Ta'lim oluvchilarning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

Pedagogik antropologiya. Shaxs haqida tushuncha. Individ - shaxs, shaxsning o'ziga xosligi.

Bola shaxsi rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda o'ziga xos jihatlari. Bola rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi.

O'quvchi shaxsi – ta'lim-tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida. O'quvchilarni yosh xususiyatlariga ko'ra davrlarga bo'lish.

Ijtimoiylashuv jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishi va uni pedagogik qo'llab-quvvatlash usullari.

4. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalari. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi. Ta'lim-tarbiya maqsadlarining turli-tumanligi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari.

O'quvchilarni maktab hayotiga moslashtirishning maqsad, vazifalari va shakllari.

5. Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish prinsiplari. Ta'lim jarayoni, uning mazmun, mohiyati. Ta'lim jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tasnifi.

Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va o'quvchilarning rivojlanishi, o'quvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish.

Ta'lim-tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim-tarbiyaning pedagogik, psixologik va fiziologik asoslari.

6. Ta'lim vositalari, metodlari va texnologiyalari. Ta'lim usullari va metodlari haqida tushuncha. Ta'limning turli bosqichlarida o'qitish metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

Ta'lim mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilarning bilish faoliyatiga asoslangan holda ularning rivojlanish darajasiga ko'ra ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar, kompyuterlar, turli audiovizual vositalardan foydalanish imkoniyatlari va ularga qo'yiladigan tibbiy-pedagogik talablar.

7. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Ta'lim muassasalarida mashg'ulot turlari va tuzilishi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining tashkiliy shakllari. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari.

8. Tarbiya – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.

Ta'lim oluvchilarni muloqotga o'rgatish shakllari. Ta'lim muassasalari o'quvchilarida jamoaviy faoliyatni shakllantirish yo'llari.

Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari.

Ta'lim muassasalari o'quvchilar jamoasi, uning tuzilishi, belgilari. Jamoaning tarkib topish mexanizmlari va bosqichlari.

9. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlarining tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.

O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Bola tarbiyasida ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'ri.

O'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari. O'quvchilar faoliyatini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati. O'quvchilar faoliyatida o'yin, o'z-o'zini boshqarish, musobaqa, o'z-o'ziga xizmatning ahamiyati.

10. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash.

O'quvchilarni aqliy tarbiyalashning vazifalari va mazmuni. O'quvchilarni intellektual rivojlanishi.

Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Ta'lim oluvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish. Mashg'ulotlar hamda oilada ekologik tarbiyaning shakl va metodlari.

11. Fuqarolik tarbiyasi. Ta'lim oluvchilarda fuqarolik tarbiyasini tarkib toptirishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari va mazmuni.

O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlari (O'zbekiston Respublikasi madhiyasi, O'zbekiston Respublikasi gerbi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i)dan foydalanish.

“Vatanparvarlik” tushunchasining mohiyati. Sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Avloniy va boshqalar.) vatanparvarlik tarbiyasi haqida.

12. Mehnat tarbiyasi. Ta'lim oluvchilarda mehnat va mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.

Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni.

13. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Axloq - ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalari, hozirgi kunda o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy kamol toptirish va shakllantirishda ularning ahamiyati.

14. Ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining estetik tarbiyasi. Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ta'lim jarayonida estetik tarbiya. O'quvchilarda san'at asarlari, dunyo xalqlari madaniyati va milliy madaniyat, tarixiy va me'moriy yodgorliklarni, Vatan tabiati, boyliklarini qadrlash va avaylab asrash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. Talim oluvchilarning rivojlanishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi.

Ta'lim muassasalarida ommaviy tadbirlar, sport musobaqalarini tashkil etish jarayoni.

O'quvchilarni gigienik tarbiyalash yo'llari. O'quvchilarning kun tartibi.

Oilada bolalarning jismoniy tarbiyalash usullari. Ular tarbiyasining jinsiy va axloqiy-estetik jihatlari.

15. Ta'lim muassasalarini boshqarish. Ta'lim muassasasida davlat-jamoat boshqaruvining psixologik-pedagogik asoslari.

Ta'lim muassasasini boshqarish vazifalari va prinsiplari. Ta'lim muassasasi rahbari va o'rinbosarlari, ularning huquqlari va majburiyatlari.

Ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi va uning ish uslubi. Ta'lim muassasasi pedagog kadrlari malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazish. Ta'lim muassasasida yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

Ta'lim muassasalarida ichki nazorat vazifalari, prinsiplari, tashkiliy shakllari va metodlari.

13.00.01 – PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KIRISH IMTIHONI SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ta'lim-tarbiya va ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari.
2. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi: uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarini rivojlantirish to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini isloh qilish sohasidagi davlat siyosatining mazmun mohiyati va yo'nalishlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonining mohiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-134-sonli Farmonining mazmun, mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli qarorining mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmonining mazmun mohiyati.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonining mazmun mohiyati.

- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarorining mohiyati.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmonining mazmun mohiyati.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorining mazmun mohiyati
- 13.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020 yildagi yangi tahriri) mazmun, mohiyati, tarkibiy tuzilishi.
- 14.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimining huquqiy-me’yoriy asoslari.
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorining mazmun, mohiyati.
- 16.11 yillik o‘rta ta’lim konsepsiyasining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.
- 17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarorining mazmun, mohiyati.
- 18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrdagi «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi № 1059-son Qarori.
- 19.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.
- 20.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun mohiyati
- 21.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori mazmun mohiyati.
- 22.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun mohiyati

- 23.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-232-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun mohiyati.
- 24.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 25-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarori.
- 25.Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4910-son 03.12.2020
- 26.O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida ta’lim-tarbiyaning qonuniy asoslari.
- 27.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qaroridan pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vaziflarning tasnifi.
- 28.Oliy ta’limning bakalavriat bosqichida talaba o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan o‘quv modullari tasnifi.
- 29.Test topshiriqlarining turlari va ularning xarakteri.
- 30.Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning umumpedagogik hamda didaktik g‘oyalari.
- 31.Pedagogik tadqiqotlarning yo‘nalishlari va natijalari.
- 32.“Temur tuzuklari”da adolat va adolatparvarlik masalalari.
- 33.A.Jomiyning “Bahoriston” asarida ma’naviy-ahloqiy qarashlarning ifodalanishi.
- 34.Hozirgi sharoitda pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolar.
- 35.Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari.
- 36.Sa’diyning “Guliston” asarida ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari.
- 37.Inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining huquqiy-me’yoriy asoslari va O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning hozirgi holati.
- 38.Pragmatik pedagogikaning asosiy yo‘nalishlari.
- 39.Pedagogikada sinergetik yondashuv, uning asosiy muammolari.
- 40.Muhibiddin Arabiyning aqliy tarbiya konsepsiyasi.
- 41.Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari attestatsiyasiga qo‘yiladigan talablar.
- 42.Pedagogikaning turdosh fanlar bilan aloqasi.
- 43.Turkistonda xotin-qizlar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari (Jahon Otin Uvaysiy, Dilshod Otin va Anbar Otinlarning qizlar maktabi).

- 44.O'quv reja va o'quv dasturlari hamda ularga qo'yiladigan talablar.
- 45.Pedagogika fanining metodologik muammolari.
- 46.Naqshbandiya ta'limoti va uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati.
- 47.Ta'lim metodlari va uning tavsifi.
- 48.Ta'lim muassasalarini boshqarish mexanizmlari.
- 49.Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi.
- 50.Kognitiv pedagogikaning maqsad va vazifalari.
- 51.Imitatsion texnologiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 52.Insonparvarlik pedagogikasi, uning taraqqiyot bosqichlari.
- 53.O'tmishda maktab va madrasalarda qo'llanilgan o'qitish metodlari.
- 54.Ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etadigan omillar.
- 55.Pedagogik jarayonlarni tashkil etish prinsiplari va qonuniyatlari.
- 56.Buyuk mutafakkirlarning ta'limiy-ahloqiy asarlaridagi didaktik qarashlar.
- 57.O'zbekistonda Mustaqillik yillarida pedagogik fikr taraqqiyoti va uning asosiy yo'nalishlari (Pedagogika fani konsepsiyasi)
- 58.Estetik ta'lim-tarbiya: mazmuni, shakl va metodlari.
- 59.Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ma'rifiy-axloqiy masalalar.
- 60.Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy-pedagogik jihatlari.
- 61.Ta'limning an'anaviy sinf-dars shakli.
- 62.Ta'lim samaradorligini oshirish omillari.
- 63.Ta'lim sifatini nazorat qilish.
- 64.Mirzo Ulug'bekning ta'limni isloh qilish sohasidagi qarashlari.
- 65.Kasbiy kompetensiyaning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 66.Pedagogik jarayonlarni modellashtirish. Modellashtirishning turlari.
- 67.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion faoliyati xarakteri.
- 68.Mutafakkir ajdodlarimiz uztoz-shogird munosabatlari haqida.
- 69.Ta'lim jarayonini tashkil etish prinsiplari.
- 70.Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va uning rivojlanish imkoniyatlari.
- 71.A.Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.
- 72.XXI-asrda O'zbekistonda didaktikaning taraqqiyoti.
- 73.O'qituvchi mehnatini rag'batlantirish sohasidagi davlat siyosati va pedagoglarga qo'yiladigan talablar.
- 74.Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonparvarlik g'oyalarining ifodalanishi.
- 75.O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish sohasidagi xalqaro tajribalar.
- 76.Artpedagogikaning maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari.
- 77.Pedagogik tashabbuskorlikning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.
- 78.Naqshbandiylilik tariqatida nafs tarbiyasi, uning bosqichlari.

79. Ta'lim mazmuni (o'quv rejasi, dasturi, darslik).
80. Ijtimoiy-pedagogik diagnostikaning o'ziga xos yo'nalishlari va metodlari.
81. Amir Temurning Movaraunnahr ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni.
82. Darsning tuzilishi va bosqichlari.
83. Evristik o'qitish metodlari.
